TASHABBUSLI BUDJET XARAJATLARI USTIDAN DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINING AHAMIYATI

Abdushayitov Abdumannobbek Abdumutal o‘g‘li
O‘zbekiston respublikasi
Bank moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada tashabbusli budjet jarayoni doirasida amalga oshiriladigan xarajatlar ustidan davlat moliyaviy nazoratini tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Tashabbusli budjet mablag‘laridan qonuniy, maqsadli va samarali foydalanishni ta’minlashda davlat moliyaviy nazoratining o‘rni hamda ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, tashabbusli budjet loyihalarini shakllantirish, tanlash, moliyalashtirish va amalga oshirish bosqichlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy xatarlar, mablag‘lardan maqsadsiz foydalanish holatlari hamda nazorat mexanizmlaridagi muammolar tahlil qilingan. Tashabbusli budjet xarajatlari ustidan nazorat samaradorligini oshirish, raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, shaffoflik va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, shuningdek, riskga asoslangan davlat moliyaviy nazorati mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tashabbusli budjet, davlat moliyaviy nazorati, budjet xarajatlari, budjet mablag‘lari, jamoatchilik nazorati, moliyaviy nazorat, budjet jarayoni, moliyaviy xatarlar, riskga asoslangan nazorat, shaffoflik, raqamlashtirish, mablag‘lardan samarali foydalanish.

Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy ahamiyati uning ikki yetakchi yondashuvni — ishtirokchi byudjet nazariyasi va davlat moliyaviy nazorati nazariyasini birlashtirib, ularning O'zbekiston sharoitidagi institutsional integratsiyasini ko'rsatib berishida namoyon bo'ladi. Dissertatsiyada Wampler tomonidan asoslangan deliberativ demokratiya nazariyasi, Tiebout va Oates

ishlab chiqqan fiskal federalizm yondashuvi, Stiglitz tomonidan rivojlantirilgan axborot iqtisodiyoti nazariyasi va Hood tomonidan ilgari surilgan “Yangi davlat boshqaruvi” konsepsiyasi O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan tarzda talqin etilib, birlashtirilgan analitik ramka shaklida taqdim etiladi. Mazkur sintez milliy ilmiy adabiyotni boyitishga xizmat qiladi va mavzuning keyingi tadqiqotchilari uchun mustahkam nazariy poydevorni yaratadi.

Tadqiqotning metodologik ahamiyati cost-benefit analysis, content-analysis, qiyosiy benchmarking va SWOT-tahlil elementlarini birlashtirgan kompleks yondashuvning O'zbekistondagi tashabbusli budjet xarajatlari ustidan nazorat masalasiga birinchi marta tatbiq etilishidadir. Tuman darajasidagi nazorat samaradorligini cost-benefit yondashuvi orqali raqamli ko'rinishda baholash usuli boshqa mahalliy hokimliklar va tumanlar uchun ham qo'llanilishi mumkin bo'lgan amaliy uslubiy yondashuvni tashkil etadi va davlat audit metodologiyasini modernizatsiyalashga hissa qo'shadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati natijalarning uch yo'nalishdagi davlat organlari amaliyotida foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi. Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tashabbusli budjet bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishda dissertatsiyada bayon etilgan amaliy takliflardan foydalanishi mumkin. Ikkinchidan, Hisob palatasi va Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi audit metodologiyasini xatarga asoslangan yondashuv va raqamli monitoringga moslashtirishda tadqiqot natijalariga tayanishi mumkin. Uchinchidan, hududiy hokimliklar va Farg’ona shaxri hokimligi tumandagi nazorat amaliyotini takomillashtirishda dissertatsiyada keltirilgan sakkizta strategik chora-tadbirlar majmuasidan foydalanishi mumkin; mazkur majmua 339 mlrd so'mlik investitsiya va 3 460 mlrd so'mlik kumulyativ samara stsenariysiga ega bo'lib, har bir investitsiya so'miga 10,2 so'mlik rentabellik ko'rsatkichini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Bank-moliya akademiyasi va boshqa iqtisodiy yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalarining davlat moliyasi, budjet siyosati, audit va moliyaviy nazorat fanlari bo'yicha o'quv kurslarida ham foydalanilishi mumkin. Shuningdek, mazkur ish keyingi tadqiqotchilar uchun mustahkam metodologik baza yaratadi va mavzuning yanada chuqur o'rganilishiga turtki bo'ladi.

Tashabbusli budjet doirasida ajratilgan mablag‘lar va loyihalarning ko‘p yillik dinamikasini grafik shaklda taqdim etish dasturning rivojlanish bosqichlari yaqqolroq ko‘rinishini ta’minlaydi. Quyidagi grafik 2021–2026-yillarda ajratilgan mablag‘, g‘olib loyihalar soni va davlat byudjetidagi ulush ko‘rsatkichlarini birgalikda aks ettiradi.



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida tashabbusli budjet doirasida ajratilgan mablag‘lar va loyihalar dinamikasi (2021–2026-yillar)

Manba: *Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy ma’lumotlari va openbudget.uz axborot portali asosida muallif tomonidan tuzildi.*

Grafik ma’lumotlari tashabbusli budjet hajmi 2021–2025-yillar davomida 850 milliard so‘mdan 6,4 trillion so‘mga ko‘tarilganini, ya’ni

qariyb 7,5 baravar oshganini ko‘rsatadi. Davlat byudjetidagi ulushi esa 0,46 foizdan 2,05 foizgacha kengaygan. Bu o‘sish dasturning iqtisodiy va siyosiy ahamiyati izchil mustahkamlanib borayotganini bildiradi. 2026-yildagi rejaviy ko‘rsatkich qisman pasaygan bo‘lsa-da, dastur strategik resurs sifatida saqlanmoqda va o‘rta muddatli istiqbolda yana o‘sish bosqichi kutiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining “Davlat moliyaviy nazorati to'g'risida”gi Qonuni, O'RQ-414, 2016-yil 7-noyabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni, PF-5300, 2018-yil 11-aprel.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Budjet jarayoni ochiqligini ta'minlash va davlat budjetining shakllantirilishi hamda ijro etilishida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori, PQ-3691, 2018-yil 13-aprel.
4. Hepworth, N. (2024). The distinction between public financial management and internal control (PFM/IC) and public financial administration and internal control (PFA/IC). In Public financial management and internal control (pp. 85–117). Springer.
5. The Institute of Internal Auditors. (2020). The IIA’s Three Lines Model: An update of the Three Lines of Defense. https://www.theiia.org/en/content/position-papers/2020/the-iias-three-lines-model-an-update-of-the-three-lines-of-defense/
6. United Nations General Assembly. (2011). Promoting the efficiency, accountability, effectiveness and transparency of public administration by strengthening supreme audit institutions (A/RES/66/209).